

SIDQIY XONDAYLIQIY SHE'RIYATIDA IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOT**Tursunova Mahbuba Baxtiyarovna**

Chirchiq davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6635555>

Annotatsiya. Maqolada Sidqiy Xondayliqiy ijodi shaxsiyati bilan bog'lab talqin qilingan va uning asarlarida namoyon bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayot voqeyliklari to'raligicha aks ettirishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Sidqiy Xondayliqiy ijodi, shaxsiyati, ijtimoiy-siyosiy hayot, hajviyot, haqqo'y shoir, mardikorlik davri she'riyati, "Rusiya inqilobi" dostoni.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ В ПОЭЗИИ СИДКЕ ХАНДАЙЛИ

Аннотация. В статье творчество Сиддики Хандайлыкы интерпретируется в связи с его личностью и делается попытка полностью отразить реалии общественно-политической жизни, отраженные в его произведениях.

Ключевые слова: творчество Сиддики Хандайлыкы, личность, общественно-политическая жизнь, комедия, настоящий поэт, трудовая поэзия, эпос «Русия инкилоби».

SOCIO-POLITICAL LIFE IN SIDQIY KHANDAILI'S POETRY

Abstract. The article interprets the work of Sidqiy Khandayliqiy in connection with his personality and tries to fully reflect the realities of socio-political life, which are reflected in his works.

Key words: The work of Sidqiy Khondayliqiy, personality, social – political life, Comedy, a true poet, poetry of the labour period, The Epic of "the Russian Revolution"

KIRISH

Jadidchilik Turkistonda 19-asrning oxirida maydonga kelgan va 20-asrning boshlarida shakllanib, qisqa muddatda yuqori po'ganaga ko'tarilgan ijtimoiy-siyosiy hodisa ekanligi barchamizga ma'lum. Jadidchilik ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan. Mazkur davrda yuzaga chiqqan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlarining hech biri jadidlar e'tibori va ta'sir doirasidan chetda qolmagan. Buning asosini esa mavjud mafkurani o'z vaqtida va to'g'ri anglay olgan, yurt uchun nafaqat molini balki jonini ham ayamaydigan haqiqiy yurt farzandlari, ziyolilari tashkil etishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxoja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abdulla Avloniy, Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy, Muhammadsharif Sofizoda, Miskin, Xislat, Tavallo kabi jonkuyar ziyoli qatlam vakillari xalqni ma'naviyatli, bilimli qilishga jon-jahdlari bilan intilishdilar. Usuli jadid maktablarini ochishib, bolalarni bepul o'qitishdi. O'quvchilar uchun darsliklar yozib, joiz bo'lsa, xalq farzandlarini o'z farzandlaridanda ziyoda ko'rishdi. Yoshlarni Germaniyada o'qib tahsil olishlari uchun muruvvatpesha insonlar qollaridan kelgancha moddiy ko'mak berishdi, yuragida vatanga bo'lgan sadoqat va muhabbat josh urgan aholi qatlami hattoki tilanchilik qilishganiga tarix guvohlik beradi.

Jadidchilik harakatining yorqin vakillaridan biri Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiydir. Avvalambor, shoir shaxsiyatiga, zahmatli hayot yo'lga bir nazar tashlamoqni joiz deb o'ylayman. Sirojiddin Sidqiy 1884-yilda tug'ilgan. Otasi Mirzohidxon zamonasining o'qimishli kishilaridan bo'lgan. Lekin Sidqiy o'zi haqidagi ma'lumotlarda otasining bechoraholroq bo'lganligi haqida ma'lumot bergan. Atoqli adib Oybek Sidqiy haqida ma'lumot berarkan, shoir kamba'gal oilada tugilib o'sgani, qattiqchilikda qiynalib o'qigani, keyinchalik esa madrasalarga joylashib

tahsilni davom ettirganligi haqida aytib o'tgan. Shoirning o'zi tabiatan mehnatkash, hunar va kasb o'rganishga moyil kishi bo'lgan. U she'r yozishdan tashqari xattotlik ilmi bilan ham shug'illangan va bu borada ancha mohir bo'lgan. Ilm olish niyatida Toshkent, Farqona singari shaharlarga borib madrasalarda o'qigan. U aruz ilmi, arab tili grammatikasi va sintaksisiga doir bilimlarni ham o'rgangan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Adabiyotga oshiqona she'rlar, ishqiy g'azallar bilan kirib kelgan shoir o'z hayoti davomida ko'plab asarlar yozdi. Ammo shoir ga'zallarining salmoqli qismini hajviyot va ijtimoiy-siyosiy mazmundagi she'rlar tashkil qilgan. Hajviy asarlarida poraxo'r qozilar, ta'magir, tovlamachi amaldorlar, riyokor shaxslar, bir so'z bilan aytganda zamonasining chirkin insonlari haqida so'z yuritgan bo'lsa, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asarlarida esa davrning muhim voqealari, Birinchi jahon urishi, SSR hukumatining mustamlaka siyosati natijasida o'zbek xalqining ruhan va jismonan ezilishi singari voqealarni ro'y-rost bayon etgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib Sidqiy Xondayliqiy asarlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish haqiqatdan holi bo'lmaydi, deb o'ylayman. Birinchi guruhga mansub asarlarida hajviy yo'l bilan zamona ahlidan arz qilish, ikkinchi guruhda esa butun insoniyatga xavf tug'dirayotgan kulfatlar, imperialistik davlatlar tomonidan dunyoni qayta bo'lib olish shiori ostida sodir etilgan qirg'inbarot urushlar, mustamlaka siyosatining chidab bo'lmas xunrezliklari aks ettirilgan.

Bu davrda ijod etgan shoirlarning, shu jumladan Sidqiy Xondayliqiy asarlarini ham voqelikni bayon etishiga ko'ra ya'ni ijtimoiylikni aks ettirishiga ko'ra bir-biridan farqlash mumkin. Sidqiyning "Rabotchilar namoyishi yohud Vatan qahramonlari" to'plamidan joy olgan "Muhoraba daf'i uchun munojot" she'ri 1917-yil fevral inqilobidan oldin sodir bo'lgan voqealarni bayon etsa, "Sitamdiyda rabotchilar kelishi" she'rida esa 1917-yil fevral inqilobidan keyingi voqealar aks ettirilgan. Adabiyot bevosita davr bilan hamnafas yashaydi. Shunday ekan ijod ahli davr ijtimoiy o'zgarishlariga o'z asarlari orqali munosabat bildirgan. Birinchi jahon urushida turkistonliklar bevosita jang maydonlarida dushman bilan to'qnashmasalarda, front ortida mashaqqatli kurash olib borganlar. Sidqiyning "Muhoraba daf'i uchun munojot" she'rida aynan birinchi jahon urushi, mardikorlikka safarbarlik voqealari, mardikorlikka olish ro'yxatlarining nohaqlik asosida tuzilganligi, boylarning farzandlari qolib, kambag'allarning bittagina o'g'li ham front ortiga safarbar etilishi, ota-onalar, ayollar, bolalar azob-uqubatda yaqinlarini olis yurtlarga kuzatishi ta'sirli aks ettirilgan.

Uch yil erurki, ketti xaloyiqni rohati,
Hech bir kishini qolmadi bir dam farog'ati,
Ham zuhd elining qolmadi lazzat-toati.
Ortuqcha bo'ldi bizlarga bu dahrning ofati,
Ko'zlarda qildi yoshni qon muhoraba.

TADQIQOT NATIJALARI

Muxammas janrida yozilgan ushbu jumalalarda rohati, farog'ati, lazzat-toati, ofati so'zlari o'zaro qofiyalanib kelgan, qofiyadosh so'zlardagi raviy "t" harfidir. She'rda uch yildan buyon rohat-farog'ati qolmagan xalqning ko'z yoshlari qonga qiyoslanadi. She'r nafaqat mazmuniy jihatdan balki qofiyasining o'ziga xos ritmga egaligi bilan ijodkorning poetik mahoratini ham ochib bergan.

Endi Sidqiyning yuqoridagi she'ring voqeaviy davomi singari bitilgan "Sitamdiya rabotchilar kelishi"she'ri orqali esa savol-javob,dialog tarzida mardikorlikdan qaytgan o'g'lonlarga murojaat qilib,ulardan ahvolini,qaylarda,qanday kunlarni ko'rganini so'roqlab shunday yozadi.

SAVOL:

Muncha muddatlarda qoldingiz qayon,xush keldingiz?
Qaysi joyg'a bordingiz bermay nishon,xush keldingiz?
Yig'lamoqdin bo'ldi ko'zlar yoshi qon,xush keldingiz!
G'amda qad bo'ldi duto,tan notavon,xush keldingiz!
Emdi g'amgin dil uyig'a mehmon,xush keldingiz!

JAVOB:

Muncha muddatlarda biz ketduk urush maydonig'a,
Ba'zimiz to'p zovutig'a,ba'zimiz mis konig'a.
Po'rma kiyduk,olduk o'zni soldat sonig'a,
Bo'ynimiz sunduk bu zolim shohning farmonig'a.
Siz so'rang bizdin deb: "Ey, zindoniyon,xush keldingiz!"

"Sitamdiya rabotchilar kelishi"-voqeaband asar.She'ring syujeti voqelikka asoslangan.Syujet lirik qahramon va lirik persanaj tilidan yoritilgan,Bunday usulda ko'plab asarlar yaratilgan.Bu she'rda savol beruvchi,muallif-lirik qahramon,javob beruvchi,ya'ni mardikor-lirik qahramon.Lirik qahramon va lirik personajning asardagi o'rni teng.Lirik personaj boshidan kechirgan voqea-hodisalarni izchil so'zlab beradi.

MUHOKAMA

Ko'plab ziyoli qatlam singari Sidqiy ham 1917-yil fevral inqilobi voqealariga katta umid bilan bog'lagan edi.Inqilob natijasida eski hukumat ag'darildi.Aynan shu davrda Sidqiy eski hukumatni qoralovchi,shu kunlarga yetganligi uchun shukronalik hissini anglatuvchi she'rlar paydo bo'ldi.Xususan "Eski hukumat zulmi" nomli she'rida sobiq hukumatning vayronakor,xunrez siyosatini hech qanday pardalarsiz ochiq ta'riflaydi.

Ohkim,ko'z to'kdi qon Eski hukumat dastidan
Bo'ldi tanlar notavon Eski hukumat dastidan

Molimizni,jonimizni zulm ila bosib olib,
Bo'ldi el muhtoji non Eski hukumat dastidan.

Shoir ijodiga,she'rlariga nazar tashlar ekanmiz,uning haq so'zni g'oyat chiroyli va ta'sirchan ifodalashiga qoyil qolmay ilojimiz yo'q.Haqiqatda ham ijodkor asarlarida ohangdorlik bilan birga dard hamohang kuylanadi.Yuqoridagi she'r masnaviy,ikkilik tarzida yozilgan, "Eski hukumat dastidan" so'zlari radif bo'lib kelgan,qofiyadosh so'zlardagi "n" harfi raviy vazifasini bajargan.She'rdagi qon,notavon,non,xonumon,chafon,fig'on singari qofiyadosh so'zlardan foydalangan.Bu she'r orqali ko'plab qo'zga'lonlarga sabab bo'lgan,bechora xalqni ayovsiz talagan,ochlikka hukm qilib, nonga zor qilgan hukumat qattiq qoralangan.Bu mavzu uning "Rusiya inqilobi"dostonida ham o'z aksini topgan.

Dostonda non deya bu yorug' dunyoni tark etgan qanchadan-qancha insonlar voqeasi ayanchli va o'ta ta'sirchan ifodalangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Sidqiy Xondayliqiy boshqa xalqparvar zamondoshlari singari yurtning boshiga kelgan ishlarga befarq qarab chetdan kuzatolmagan, chunki shoirda yoniq qalb bor, bunday insonlar esa atrofida sodir bo'layotgan voqealarga befarq qaray olmaydi. Shoir asarlarining o'ziga xos jihati sodir bo'layotgan voqelikni izchillik bilan yoritilgan. Bu esa nafaqat bugungi kun adabiyoti uchun balki tarix va geografiya fanlari uchun ham ahamiyatlidir. Shoir uzoq tarix misolida o'zaro nizo va janjallarning Vatan va Millat taqdiridagi fojiali oqibatlarini ko'rsatib beradi. Millatning hayot-mamoti hal bo'layotgan shunday bir paytda "Ittifoq"ning suv va havodek zarur ekanligi haqida bong uradi. Aslida bu g'oya juda muhim va o'lmasdir. Bu mamlakatimiz istiqloлга erishgan bugungi kunda ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Nafaqat bizning yurtimiz, yurtdoshlarimiz uchun balki jamiki insoniyat uchun ittifoqlik, birlik davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arziqulov A. U. (2003). Interfaol usullar. Samarqand
2. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 2018 1-, 2-, 3-, 4-sonlar
3. Tosheva O. (2012) Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari. Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 12-son.
4. Abdullayeva, O. O. (2021). Abay ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(3), 4-9.
5. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Academic research in educational sciences, 2(3)
6. Botirboyev, F. P., Abdullayeva, O. O., & Shermatova, U. S. (2021). O'ljas Sulaymonov ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(4), 2013-2018. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00834>
7. Abdullayeva, O. (2021) Badiiy asarlarning inson ruhivatiga ta'siri. Scientific progress, 1(5), (pp. 272-275)
8. Abdullayeva, O. O. Q, (2021). O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni. Scientific progress, 1(5)
9. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. Студенческий вестник, 16(161)
10. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). OTLARNING BIRLIK VA KO'PLIKDA QO'LLANILISHINI O'RGATISH. Scientific progress, 2(1)
11. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). XALQARO TADQIQOTLAR VA ULARNING ADABIYOT FANIDA TUTGAN O'RNI. Scientific progress, 2(1)
12. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) O'lmas Umarbekov hayoti va ijodini o'rganishda interfaol metodlar bilan ishlash. Science and education, 2(5)
13. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Saida Zunnunova hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari. Science and education, 2(5)
14. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Said Ahmad hikoyalarini o'rganishda interaktiv metodlar. Science and education, 2(6)
15. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Umumiy o'rta ta'limda ertak o'qitish metodikasi. Scientific progress, 2(2)